

**“MUSIQA VA MILLIY RIVOJLANISH UYG‘UNLIGI”****Nazarova Dilnoza Eraliyevna***Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti  
Tarix kafedrası dotsenti, tarix fanlari falsafa doktori (PhD).***Maxmudova Kamilla Abdupatto qizi***Musiqá madaniyati va san‘at  
(Musiqá ta‘limi) I-kurs magistri*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada O‘zbekiston milliy strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida musiqá san‘atining o‘rni tahlil qilinadi. Unda milliy musiqá merosi, xususan Shashmaqom san‘atining ahamiyati, zamonaviy estrada rivoji hamda yosh avlod tarbiyasidagi roli yoritilgan. Shuningdek, musiqá orqali madaniy diplomatiya, xalqaro hamkorlik va kreativ iqtisodiyot imkoniyatlari ochib berilgan. Maqolada musiqá va milliy taraqqiyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik asoslab berilib, uning jamiyat rivojidagi ahamiyati umumlashtiriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *O‘zbekiston milliy strategiyasi, San‘at, Shashmaqom, folklor, madaniy eksport, madaniy imidj, innovatsion loyiha, onlayn platforma.*

**Annotation**

*This article analyzes the role of music as one of the key directions of the national strategy of O‘zbekiston. It highlights the importance of national musical heritage, particularly Shashmaqom, as well as the development of modern pop music and its role in the upbringing of the younger generation. The article also explores opportunities in cultural diplomacy, international cooperation, and the creative economy through music. Furthermore, it substantiates the interconnection between music and national development and summarizes its significance in the progress of society.*

**Keywords:** *Uzbekistan national strategy, art, Shashmaqom, folklore, cultural export, cultural image, innovative project, online platform.*

**Аннотация**

*В данной статье анализируется роль музыкального искусства как одного из важных направлений национальной стратегии O‘zbekiston. Освещается значение национального музыкального наследия, в частности искусства Шашмақом, развитие современной эстрады и его роль в воспитании подрастающего поколения. Также рассматриваются возможности культурной дипломатии, международного сотрудничества и креативной экономики через музыку. В статье обосновывается*

*взаимосвязь между музыкой и национальным развитием, а также подводится итог её значимости в развитии общества.*

**Ключевые слова:** *национальная стратегия Узбекистана, искусство, Шашимақом, фольклор, культурный экспорт, культурный имидж, инновационный проект, онлайн-платформа.*

**Kirish:** Bugungi kunda O‘zbekiston har sohada jadal rivojlanmoqda. Sport, ta’lim, iqtosodiyot va yana ko‘plab yo‘nalishlarni takomillashtirish orqali kelajakka ildam qadam qo‘ymoqdamiz. Muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonlaridan ishlab chiqilgan O‘zbekiston Xarakatlar strategiyasi 2017-2026, O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi va yaqinda yana takomillashtirilgan O‘zbekiston strategiyasi 2030 dasturlarini bu borada hissasi beqiyosdir. Ushbu dasturda har bir yo‘nalish keltirilganligi bizga har tomonlama rivojlanishga yordam bermoqda. Musiqa sohasi ham bundan chetda qolmadi. Har bir xalqning kelajakka qarab tashlagan qadamlari uning ichki ruhiyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. O‘zbekiston uchun esa bu ruhiyat eng avvalo musiqa orqali namoyon bo‘ladi. Musiqa — bu shunchaki ohanglar yig‘indisi emas, balki tarix, xotira va milliy o‘zlikning tirik ifodasidir. Shu bois bugungi kunda mamlakatning milliy strategiyasi ham ana shu madaniy ildizlar bilan uyg‘un holda rivojlanmoqda.

**Asosiy qism:** O‘zbekiston harakatlar strategiyasining to‘rtinchi yo‘nalishi “ Ijtimoiy sohani rivojlantirish”deb nomlanadi. Ushbu yo‘nalishda — madaniyat va san’atni rivojlantirish ham alohida ta’kidlab o‘tildi . Musiqa esa bu yo‘nalishning yuragi hisoblanadi. O‘zbek milliy musiqasi, xususan, maqom san’ati, folklor kuy-qo‘shiqlari va zamonaviy estrada asarlari yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois davlat tomonidan musiqa maktablari, konservatoriyalar va ijodiy markazlarni qo‘llab-quvvatlash strategik vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda.

Musiqa yosh avlod tarbiyasida ham muhim rol o‘ynaydi. Turli musiqa maktablari va ijodiy markazlar orqali yoshlarning iste’dodini rivojlantirish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa milliy strategiyaning asosiy maqsadlaridan biri — barkamol avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, musiqa xalqaro maydonda ham O‘zbekistonning madaniy imidjini shakllantiradi. Turli xalqaro festivallar, konsertlar va tanlovlarda o‘zbek san’atkorlarining ishtiroki mamlakatning boy madaniy merosini dunyoga tanitadi. Bu esa milliy strategiyaning yana bir muhim jihati — global integratsiya va madaniy diplomatiyani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy davrda esa musiqa yangi shakllarda rivojlanmoqda. Bugungi o‘zbek estradasida Yulduz Usmonova, Ozodbek Nazarbekov kabi san’atkorlar milliy an’analarni zamonaviy uslub bilan uyg‘unlashtirib, keng auditoriyaga yetkazmoqda. Ularning ijodi nafaqat ichki bozorda, balki xorijda ham katta qiziqish uyg‘otmoqda. Bu esa milliy

strategiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri — madaniy eksportni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan musiqa sanoati ham yangi bosqichga chiqmoqda. O‘zbekistonda yosh ijodkorlar uchun onlayn platformalar, studiyalar va innovatsion loyihalar yaratish orqali ularning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa iqtisodiy rivojlanish bilan bir qatorda, kreativ industriyani ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, musiqa O‘zbekiston milliy strategiyasining ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat madaniy merosni asrash, balki jamiyatni birlashtirish, yoshlarni tarbiyalash va mamlakatning xalqaro nufuzini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli musiqa va milliy rivojlanish strategiyasi o‘rtasidagi uyg‘unlik kelajak taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi.